



OZIQ-OVQAT SANOATIDA KLASTERLASH MASALALARI

**Mamayev
Bahodirjon
Nosirovich**

AIQI, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasini mudiri, i.f.n., dotsent
E-mail: bnmamayev@umail.uz

Annotatsiya

Maqolada pandemiya sharoitida iqtisodiy klasterlar, ularni o'ziga xos xususiyatlari va shakllantirish asoslari hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida oziq-ovqat sanoatini klasterlash orqali yanada rivojlantirish, fermer xo'jaliklarini ixtisoslashtirishda klasterlarni roli yoritilgan.

Kalit so'zlar:

pandemiya, klaster, qishloq xo'jaligi, agrosanoat klasteri, oziq-ovqat sanoati klasteri, infratuzilma, logistika, kommunikatsiya, integratsiya, fermer xo'jaligi, raqobatbardoshlik.

Kirish

Klasterlash iqtisodiy munosabatlarda, ayniqsa pandemiya sharoitida integratsion jarayonlarni jadallashtirishda milliy iqtisodiyotning turli bo'g'inlarini maqsadli va izchil davom etishida, mamlakatnig jahon iqtisodiyotida o'zini munosib o'rnini topishida katta rol o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyolarni yetkazib beruvchi fermer xo'jaliklari o'rtasida samara keltiruvchi kommunikatsion tizim va infratuzilmalarni taqozo etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday darajada klasterlash jarayonlari xo'jalik yuritishning muayyan shakllari orqali ro'yobga chiqariladi.

Iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy usullari yetarli darajada samaradorlikni va raqobatbardoshlikni ta'minlay olmayotgan hozirgi davrda innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tish yangi iqtisodiy tuzilma "klaster"larni joriy etishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili:

Klaster nazariyasining asoschisi M.Porter raqobatbardosh, bir tarmoqqa tegishli korxonalarning turli mamlakatlarda tarqoq joylashganligini, ularning bir mamlakat, qolaversa, ma'lum bir mintaqada to'planish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatgan. Sanoat va boshqa tarmoqlardagi klasterlar faoliyati o'rganilganda, klaster tizimidan tashqaridagi tarmoqlarga nisbatan raqobatda ustunligi hamda ular joylashgan mintaqalar aholisining turmush darajasi ham yuqoriligi aniqlangan.

Bir guruh amerikalik olimlar, jumladan M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell, A.Marshall, M.Storper va boshqalarning klaster haqidagi nazariyalarida klaster -

hududdagi ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizim ekanligi hamda ishlab chiqaruvchilarning raqobatda ustunligini ta'minlashi ko'rsatilgan.

J.Danning, K.Brimen va boshqa britaniyalik olimlarning nazariyalarida klaster - o'zaro hamkorlikdagi institutlar tizimi ekanligi qayd etilgan. Migranyan A.A.ning fikricha, klaster "iqtisodiy faoliyatning nisbatan samarali va bir-biri bilan bog'liq turlarining majmui, ya'ni muvaffaqiyat bilan raqobat qiluvchi o'zaro bog'liq guruhlar to'plami bo'lib, tarmoq, milliy va jahon bozorlarida raqobatchilik vaziyatini ta'minlab beradi"¹.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, investitsion faollikni va jozibadorlikni oshirish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishda klasterlarning o'rnini yuqori ekanligini ko'rsatadi. Jahon ekspertlarining ta'kidlashicha, klaster mexanizmidan foydalanish bugungi kunga kelib, dunyoning yetakchi mamlakatlarida iqtisodiyotning deyarli 50 foizini egallagan.

M.Porter va M.Enraytlarning klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish xaqi esa 30 foizgacha ko'p bo'lishi, ishlab chiqarish va ilmiy izlanish bilan shug'ullanadigan xodimlarning mehnatlarini yanada ko'proq rag'batlantirishga va raqobatbardosh tovarlarni yaratish uchun imtiëzli sharoitlarning mavjud bo'lishi kabi klaster mexanizmining ustuvor tomonlarini ko'rsatishgan.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 9 oktyabrda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-sonli farmoni[1] qabul qilinishi fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish, fermer xo'jaliklarini 2018-2021 yillar mobaynida bosqichma bosqich to'liq ko'p tarmoqli xo'jalik yuritish shakliga o'tkazish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimizda bugungi kunda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlar soni 517174 tani, shundan 103 mingga yaqini fermer xo'jaliklaridir. Yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 30 foizdan ortig'i mazkur xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan, so'nggi yillarda fermer xo'jaliklari tomonidan o'rtacha 7 million tonnadan ziyod g'alla, 3 million tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetishtirilmoqda. Shuningdek, meva-sabzavot, uzum, poliz va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Ushbu sohada bozor munosabatlari tamoyillariga

¹ Жўраев Т.Т., Ҳамидов М.Э. Ўзбекистонда агросаноат кластерларининг ривожланиши ва уларнинг қишлоқ хўжалиги тараққиётида тутган ўрни, "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали, №2, апрел, 2019, ТМИ, Тошкент

javob beradigan huquqiy asoslar yaratilgan². Bunday yutuqlarga erishishda esa bevosita fermer xo'jaliklarini to'g'ri va maqsadli klasterlashdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda klaster tushunchasining uchta keng tarqalgan ta'rifi mavjud:

klaster– ilmiy tashkilotlarga birlashtirilgan turdosh tarmoqlar ichidagi iqtisodiy faollikning hudud jihatdan chegaralangan ko'rinishi;

klaster– vertikal ishlab chiqarish zanjirlari, tor doiradagi sohalar bo'lib, ulardagi ishlab chiqarish jarayonining o'zaro bir-birini to'ldiruvchi bosqichlari klasterning yadrosini yaratadi (misol uchun, xom-ashyo yetkazib beruvchi– ishlab chiqaruvchi– sotuvchi– iste'molchi klasteri).

Ushbu kategoriyaga bosh ofis atrofida tashkil etiluvchi tarmoqlarni kiritishimiz mumkin;

klaster – yuqori agregatsiyaga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari (misol uchun kimyoviy klaster yoki yanada yuqoriroq agregatsiyaga ega bo'lgan agrosanoat klasteri)dir.

Iqtisodiy klasterlar tuzilishiga ko'ra geografik, sohaviy, gorizontaal va vertikal turlarga bo'linadi. Bilim va fan bilan bog'liqligiga ko'ra esa: yuqori texnologik klaster (bilimlar iqtisodiyotiga asoslanadi hamda universitetlar, tadqiqot institutlari doirasida tashkil etiladi – Kremniy Vodiysi, Sharqiy London texnologik shaharchasi, Parij-Sakle klasteri); tarixan nou-xauga asoslangan klasterlar (asosan sanoat bilan bog'liq bo'lgan yoki tarixan an'anaviy tarmoqlarda yetakchi bo'lgan klasterlar- London birjasini ham klaster sifatida ko'rish mumkin); omil asosidagi klasterlar (geografik joylashuv natijasidagi afzallik tufayli yaratiladigan klasterlar, misol uchun vino klasterlari); ishlab chiqarish xarajatlari past bo'lgan klasterlar (asosan rivojlangan mamlakatlarga xizmat ko'rsatish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil etiladi hamda ko'pincha tekstil, elektronika tarmoqlarida yaratiladi); bilim xizmatlarini ko'rsatuvchi klasterlar (dasturlash, injiniring, analitik tahlil xizmatlarini ko'rsatuvchi, asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi klasterlar) farqlanadi. Klasterli yondashuvning mohiyati hududning iqtisodiy potensialidan maksimal darajada foydalanish va uni oshirish hisoblanadi. Klasterlarning rivojlanishi xarajatlarning kamayishi va ishtirokchi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshishi, innovatsion faoliyat uchun kapitalning shakllanishi hamda faoliyat olib borishning yangi sharoitlari shakllanishi bilan o'ziga xosdir. Klaster strategiyalari mamlakat yoki hududning raqobatbardoshligi oshirish bilan bir qatorda uning innovatsion salohiyatini oshiradi, ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Shu sababli ham klasterlashtirish dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida kuzatiladi. Misol uchun, Shimoliy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti butunlay klasterlar bilan qoplangan bo'lib, ular orqasida o'rmon-qog'ozchilik, biotexnologik, farmasevtika

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-sonli farmoni

va kommunikatsiyalar klasterlari yetakchilik qiladi. Buyuk Britaniya hamda Germaniyada biotexnologiya klasterlari Fransiyada iste'mol tovarlari, kosmetikalar ishlab chiqarish bo'yicha klasterlari rivojlangan. Italiyada sanoatda band aholining deyarli yarmi aynan klasterlar doirasida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston respublikasida oziq-ovqat sanoatini klasterlashdan maqsad aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojlarini maqbul darajada to'laroq qondirishda va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi siyosatida oziq-ovqat mahsulotlarini asosan o'zining qishloq xo'jaligi va sanoati asosida ishlab chiqarishini va ichki sotish bozorlarini rivojlantirishga, qisman chet ellardan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish asosida aholini oziq-ovqatga bo'lgan maqbul darajadagi ehtiyojini qondirish ko'zda tutiladi[4].

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish asosida g'alla mustaqilligiga erishildi va oziq-ovqatning barcha asosiy turlarini mamlakatning o'zida ishlab chiqarish amalda to'liq ta'minlandi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi PQ-1047-sonli "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, sut, go'sht, meva-sabzavot va uzumni qayta ishlash bo'yicha yangi korxonalar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsion loyihalarni amalga oshirdilar.

Respublikada 2015 yilda 97,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan shundan, 18,5 trln. so'm oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat bo'lgan. 2019 yilda 322,5 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 35,3 trln. so'm qismi oziq-ovqat mahsulotlari ulushiga to'g'ri kelgan. 2023 yil davomida 655,8 trln. so'm qiymatidagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, shundan 66,5 trln. so'm qismi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelgan.

1-jadval

O'zbekistonda sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi [2]

(mlrd.so'mda)

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sanoat mahsuloti xajmi	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	456056,1	553265,4	655800,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	18511,6	22400,5	23217,7	25256,5	35337,3	42388,2	48643,3	57547,3	66478,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2023

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini yanada jadal sur'atlarda ko'paytirish qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgartirishlarni hamda oziq-ovqat

sanoatini modernizatsiya qilish asosida qayta ishlash ko'lamlarini kengaytirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli qarorining qabul qilinganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qarorga binoan 2020 yilgacha paxta xomashyosini yetishtirish va uni xarid qilish hajmini 3350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug'oriladigan yer paxtadan bo'sh shay bayon etilgan. Shuningdek, don yetishtirish hosildorligini oshirish hisobiga don ekin maydonlari 50 ming gektarga qisqartirish, paxta va don ekinlaridan bo'sh shagan yer maydonlariga kartoshka, sabzavot, ozuqa va moyli ekinlar joylashtirilishini, shuningdek intensiv bog'lar va tokzorlar barpo etilishi rejalashtirilgan edi. Buning natijasida 2020 yilda boshqoli don yetishtirishni 16,4% ga oshishi, uning hajmini 8 mln 500 ming tonnaga yetishi, kartoshka yetishtirish 35,0% ga, sabzavot 30,0% ga, meva va uzum 21,5 % ga, go'sht yetishtirish 26,2% ga, sut 47,3% ga, tuxum 74,5% ga ko'payishiga erishildi, baliq yetishtirish 2,5 martaga oshdi³.

O'zbekistonda 2016-2024 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va tashish bo'yicha 27 ta logistika markazlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Shu davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida 2024 yilda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash ulushini 25,7% ga, go'shtni qayta ishlash ulushini 21% ga, sutni qayta ishlash ulushini 20,6% ga yetkazish mo'ljallanmoqda. Buning natijasida 2024 yilda 2016 yilga nisbatan meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarish hajmi 3,1 barobarga, meva sharbatlari 3,2 martaga, sut va sut mahsulotlari 2,1 martaga, quritilgan mevalar, kolbasa mahsulotlari 2,5 martaga, go'shtli konservalar 2,7 martaga ko'p ishlab chiqarishga erishiladi. Shuningdek, tayyor meva-sabzavot konservalarini, quritilgan mevalar va meva sharbatlarini eksport qilish hajmi 2,8 barobardan ziyodga oshiriladi⁴ [6].

Endilikda klasterlash asosida fermer xo'jaliklarida oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsion loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirish uchun klasterlar tashkil qilinmoqda. Xususan,

- klasterlash asosida oziq-ovqat sanoati korxonalarini tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni yanada takomillashtirish; zamonaviy texnologik uskunalarni lizing asosida xarid qilish orqali tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash;

- klasterlash asosida loyihalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar

³ Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий ҳавфсизлиги. Ўқув қўлланма.-Т.: Академија, 2019.-161-162-бет

⁴ Ўзбекистон Республикаси камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги маълумотлари.

O'zbekistonda pandemiya sharoitida oziq-ovqat sanoatini, xususan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirish va tarmoqning eksport salohiyatini yuksaltirish uchun quyidagi klasterlashni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini maqsadli klasterlarni tashkil qilgan holda zamonaviy sanoat texnologiyalari asosida chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan korxonalar tarmog'ini, shuningdek, ularni saqlashga ixtisoslashgan sovutish kameralari, ularni saralash va qadoqlash punktlari hamda tashish bilan shug'ullanuvchi maxsus transport-kommunikatsiya tarmog'ini kengaytirish;

- klasterlash asosida qayta ishlash sanoatini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, ilm-fanning yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jadal qo'llash. Bunda material va energiya sig'imini pasaytirish, resurs tejovchi kam chiqimli texnologiyalarga, yuqori unumdorlikka ega bo'lgan mini-texnologiyalarga ustuvorlik berish;

- klasterlash asosida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar assortimenti va sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

- klasterlash asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqarish majmualari, xoldinglar va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari faoliyatini kengaytirish hozirgi davrning eng maqbul yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-sonli farmoni.

2. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T.: Akademiya, 2012.-161-162-bet.

4. Umarov, Tursunboy Sayfiddin o'g'li (2024) Korrelyatsiya koeffitsientini statistik baholash. Analytical Journal of Education and Development, 4 (5). pp. 413-415. ISSN 2181-2624

5. [Tadbirkorlik faoliyatida loyixaviy boshqaruvni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari](#) Y. Nematillo "PEDAGOGS" international research journal 59 (Issue-1), 202-207

6. Shukurullaevna, B. S. (2023). Management system for the effective use of labor potential in the development of integration processes. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 466-473.

7. Qahhorov, S. (2023). Soliq siyosatini iqtisodiy faollikka yo'naltirilgan mexanizmlarini takomillashtirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 261-263.

8. Davidova D. T. Sug'urtada axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ulardan foydalanish mezonlari //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – T. 2. – №. 23. – S. 56-62.

9. Mamayev B.N. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli marketing elementidan biri internet-reklamadan foydalanishning tendensiyalari [vol. 1 no. 8 \(2022\): O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali](#) /

10. Mamayev B.N. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari, International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 20 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2

11. Mamayev , B. N. (2023). O'zbekiston baliq sanoatini rivojlantirishda klasterlash. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 693–700. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4511>

12. Sh, B. S., & Abdug'aniev, Y. J. (2024). Youth Entrepreneurship and its Socio-Economic Advantages. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(4), 166-169.

13. Shukurullayevna, B. S. (2024). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN PROSPECTS OF DIRECTIONS. Journal of new century innovations, 54(3), 114-117.

14. Қаҳҳоров, Ш., & Шаробиддинов, А. (2024). КОРПОРАТСИЯЛАРНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ ЖАҲОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ. Interpretation and researches.